

**O'ZBEKISTON ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH AGENTLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Himoyaga ruxsat

«AX» kafedra mudiri

«_____» Yusupov S.Yu.

«___»_____2012 y.

BAKALAVR BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Yuz shakli bo'yicha foydalanuvchilarni autentifikatsiyalash dasturini yaratish

Bitiruvchi	_____	<u>Islomov Sh. Z</u>
	(imzo)	(F.I.Sh.)

Rahbar	_____	<u>Karimov M.M</u>
	(imzo)	(F.I.Sh.)

Taqrizchi	_____	<u>Avlayev D. Yu.</u>
	(imzo)	(F.I.Sh.)

HFX

maslahatchisi	_____	<u>Tursunova A</u>
	(imzo)	(F.I.Sh.)

Toshkent - 2012

MUNDARIJA

KIRISH	6
1. AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA RUXSATSIZ FOYDALANISHLARDAN HIMOYALASH	
1.1 Autentifikatsiyalash muammolari	10
1.2 Autentifikatsiya usullari va vositalari	12
1.3 Foydalanuvchilarni biometrik autentifikatsiya turlari asosida haqiqiylikni tasdiqlash	19
2. YUZ SHAKLI BO'YICHA FOYDALANUVCHILARNI AUTENTIFIKATSIYALASH DASTURINI ISHLAB CHIQISH	
2.1 Yuz shakli bo'yicha autentifikatsiyalash usullari	25
2.2 Yuz shakli bo'yicha autentifikatsiyalash algoritmlari	37
2.3 Yuz shakli bo'yicha autentifikatsiyalashning algoritmini ishlab chiqish	43
2.4 Yuz shakli bo'yicha autentifikatsiyalashning dasturiy modulini yaratish.....	47
3. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	
3.1 Elektr qurilmalarida ishlaganda jarohatlanishdan himoyalanih.....	53
3.2 Aloqa korxonalarida yong'in xavfsizligi.....	58
XULOSA	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	64
ILOVA	

ANNOTATSIYA

Ushbu bitiruv malakaviy ishi yuz bo'yicha autentifikatsiyalashni amalga oshirish usullariga bag'ishlangan. Ishda neyron tarmoqlar, elastik graf, asosiy komponent, chiziqli diskret taxlil, yuzning geometrik xarakteristikolari asosida, maxfiy markovski va rasmlarni integral tasvirlash usullari ko'rsatilgan. Xususan, C# dasturlash tili yordamida bu usulni amalga oshirish dasturi ishlab chiqildi.

АННОТАЦИЯ

Данная выпускная квалификационная работа посвящена реализации методов аутентификации на основе распознавания лиц. В работе описано нейросетевые методы, эластичный граф, главный компонент, линейный дискриминантный анализ, метод основанные на геометрических характеристиках лица, скрытые Марковские модели, эмпирическое распознавание, Виола-Джонс (Viola-Jonoes), интегральное представление изображений. В частности, разработан программный модуль реализующий данный метод с помощи программированной языка C#.

THE SUMMARY

This final qualification work is devoted to the implementation of authentication methods based recognizers face. This paper describes methods for neural networks, elastic graph, the main component, a linear discriminant analysis, a method based on the geometric characteristics of the face, hidden Markov models, empirical recognition, Viola-Jones (Viola-Jonoes), the integral representation of images. In particular, developed a software module which implements this method with the aid programmed in C #.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martda “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish va rivojlantirish chora-tadbirlariga oid” Qarorida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mazmun-mohiyati, asosiy vazifalari va maqsadlari belgilab berildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirishning uchinchi bosqichi hisoblanayotgan axborot tizimlarini joriy etish bilan birgalikda, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga oid vazifalarning ijrosi bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Ushbu vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish bo‘yicha aniq topshiriqlar va muddatlar belgilandi, O‘zbekiston Respublikasida 2012-2014 yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha dasturning ijrosini ta’minlash yuzasidan reja-jadvali tasdiqlandi.

“XXI asr – axborot texnologiyalar asri ” – deb bejizga aytmaganlar Prezidentimiz I.A.Karimov. Axborot texnologiyalarni rivojlanishi har bir mamlakat uchun ish unumdorligini oshishi, sifati va eng asosiysi ish samaradorligi yuqori darajada bo‘lishini ta’minlab beradi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillari axborotlashtirish sohasida inqilobiy o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qulayliklar yaratish bilan bir qatorda yangi muammolarni ham o‘rtaga qo‘ymoqda.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda axborot telekommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borishi global axborot jamiyatida O‘zbekiston Respublikasi ham munosib o‘rin egallashiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Hozirgi kunda axborot bazalarida saqlanayotgan va telekommunikatsiya tizimlarida aylanayotgan axborot xavfsizligiga tahdid keskin oshib bormoqda.

Natijada axborot xavfsizligi muammosi O‘zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarb muammoga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining milliy kriptografik algoritmlarini yaratish, ularni takomillashtirish va axborotni kriptografik muhofazalashning milliy dasturiy va apparat-dasturiy vositalarini ishlab chiqish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 3-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasida axborotning kriptografik muhofazasini tashkil etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» 614-sonli qarorida birinchi galdagi vazifa qilib qo‘yilganligini hisobga olsak, mazkur ixtiro bu qarorning bajarilishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Bundan kelib chiqib kompyuter tizimlari rivojlanayotgan bir vaqtda tarmoqdan foydalanishda xar bir foydalanuvchini shaxsini aniqlash va unga ma‘lum huquqlar berish vaqt talabi bo‘lib bormoqda. Kompyuter tizimida ro‘yxatga olingan har bir subyekt (foydalanuvchi yoki foydalanuvchi nomidan harakatlanuvchi jarayon) bilan uni bir ma‘noda identifikatsiyalovchi axborot bog‘liq.

Bu ushbu subyektga nom beruvchi son yoki simvollar satri bo‘lishi mumkin. Bu axborot subyekt identifikatori deb yuritiladi. Agar foydalanuvchi tarmoqda ro‘yxatga olingan identifikatorga ega bo‘lsa u legal (qonuniy), aks holda legal bo‘lmagan (noqonuniy) foydalanuvchi hisoblanadi. Kompyuter resurslaridan foydalanishdan avval foydalanuvchi kompyuter tizimining identifikatsiya va autentifikatsiya jarayonidan o‘tishi lozim.

Identifikatsiya (Identification) - foydalanuvchini uning identifikatori (nomi) bo‘yicha aniqlash jarayoni. Bu foydalanuvchi tarmoqdan foydalanishga uringanida birinchi galda bajariladigan funksiyadir. Foydalanuvchi tizimga uning so‘rovi bo‘yicha o‘zining identifikatorini bildiradi, tizim esa o‘zining ma‘lumotlar bazasida uning borligini tekshiradi.

Autentifikatsiya (Authentication) – ma‘lum qilingan foydalanuvchi, jarayon yoki qurilmaning haqiqiy ekanligini tekshirish muolajasi. Bu tekshirish foydalanuvchi (jarayon yoki qurilma) haqiqatan aynan o‘zi ekanligiga ishonch xosil qilishiga imkon beradi. Autentifikatsiya o‘tqazishda tekshiruvchi taraf

tekshiriluvchi tarafning xaqiqiy ekanligiga ishonch hosil qilishi bilan bir qatorda tekshiriluvchi taraf ham axborot almashinuv jarayonida faol qatnashadi. Odatda foydalanuvchi tizimga o'z xususidagi noyob, boshqalarga ma'lum bo'lmagan axborotni (masalan, parol yoki sertifikat) kiritishi orqali identifikatsiyani tasdiqlaydi.

Autentifikatsiya natijasida foydalanuvchilarni shaxsini aniqlash (tekshirish) va unga tarmoq xizmatlaridan foydalanishga ruxsat berish vazifalari amalga oshiriladi. O'zining haqiqiyligining tasdiqlash uchun sub'ekt tizimga turli asoslarni ko'rsatishi mumkin. Sub'ekt ko'rsatadigan asoslarga bog'liq holda autentifikatsiya jarayonlari quyidagi kategoriyalarga bo'linishi mumkin:

- *biror narsani bilish asosida.* Misol sifatida parol, shaxsiy identifikatsiya kodi PIN (Personal Identification Number) hamda “so'rov javob” xilidagi protokollarda namoyish etiluvchi maxfiy va ochiq kalitlarni ko'rsatish mumkin;
- *biror narsaga egaligi asosida.* Odatda bular magnit kartalar, smart-kartalar, sertifikatlar va “touch memory” qurilmalari;
- *qandaydir daxlsiz xarakteristikalar asosida.* Ushbu kategoriya o'z tarkibiga foydalanuvchining biometrik xarakteristikalariga (ovozlar, ko'zining rangdor pardasi va to'r pardasi, barmoq izlari, kaft geometriyasi va x.) asoslangan usullarni oladi. Biometrik xarakteristikalar binodan yoki qandaydir texnikadan foydalanishni nazoratlashda ishlatiladi.

Biometrik autentifikatsiyalash jaroyonida foydalanuvchining shaxsan biologik belgilari olinadi va bu belgilar boshqalarda uchramaydi, shuning uchun ham bu usul boshqa autentifikatsiya usullaridan ishonchli hisoblanadi. Undantashqari foydalanuvchining bu shaxsiy belgilari ko'chirib foydalanib bo'lmaydi, ya'ni uning aynan ishtirokida amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqib biometrik belgilarni ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

1. Fizik belgilar (barmoq izlari, ko'z to'rpardasi, yuz shakli);
2. Psixiologik belgilar (klaviatura orqali imzo chekish, ovozor qali).

Bu ikki turdan fizik belgilar orqali autentifikatsiyalash ishonchli hisoblanadi, chunki psixik belgilar vaziyatga qarab har xil bo'lishi mumkin.

Autentifikatsiya tizimlarida eng katta muammo foydalanuvchining autentifikatsiya vositasiga begona shaxslarning egalik qilishi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun bevosita biometrik vositalarga tayanamiz. Chunki ularning aynan shaxsning o'zidagi foydalanish mumkin emas.

Ushbu biometrik parametrlarni ochiq tarmoqda uzatish xavfli, shuning uchun uni xavfsiz kanallardan uzatish muammosi xam tug'iladi.

Ishdan maqsad: Yuz shakli bo'yicha foydalanuvchilarni autentifikatsiyalash dasturini yaratish.

Mavzuning dolzarbligi: AKTlarga ruxsatsiz kirishlarni oldini olish va autentifikatsiyalash tizimini mustahkamligini oshirish.

Bitiruv malakaviy ish tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhati va ilovadan iborat bo'lib, 1-bobda axborot kommunikatsiya tizimlarida ruxsatsiz foydalanishlardan himoyalash. 2-bobda yuz shakli bo'yicha foydalanuvchilarni autentifikatsiyalash dasturini ishlab chiqish, 3-bobda esa hayot faoliyati xavfsizligi to'g'risida ma'lumot berilgan.

I BOB. AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA RUXSATSIZ FOYDALANISHLARDAN HIMOYALASH

1.1. Autentifikatsiya muammolari

Foydalanuvchilarni identifikatsiya va autentifikatsiya dan o'tkazish asosantizi mdan foydalanishga ruxsat berish uchun amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni uzatish kanallarida himoyalashda sub'ektlarning o'zaro autentifikatsiyasi, ya'ni aloqakanallari orqali bog'lanadigan sub'ektlar xaqiqiyligining o'zaro tasdig'ibajirilish shart. Xaqiqiylikning tasdig'i odatda seans boshida, abonentlarning bir-biriga ulanish jarayonida amalga oshiriladi. "Ulanish" atamasi orqali tarmoqning ikkita sub'ekti o'rtasida mantiqiy bog'lanish tushuniladi. Ushbu muolajaning maqsadi – ulanish qonuniy sub'ekt bilan amalga oshirilganligiga va barcha axborot mo'ljallangan manzilga borishligiga ishonchni ta'minlashdir.

Elektron tijorat tizimida to'lovlar quyidagi qator shartlarning bajarilishi asosida amalga oshiriladi:

- konfidentsiallikning saqlanishi – Internet orqali to'lovlar amalga oshirilishida xaridor ma'lumotlarining (masalan, kredit karta nomeri) faqat qonun bilan belgilangan tashkilotlarga bilishi kafolatlanishi shart;
- axborot yaxlitligining saqlanishi-xarid xususidagi axborot hech kim tomonidan o'zgartirilishi mumkin emas;
- autentifikatsiya-xaridorlar va sotuvchilar ikkala tomon ham haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qilishlari shart;
- to'lov vositalarining qulayligi - xaridorlarga qulay bo'lgan har qanday vositalar bilan to'lov imkoniyati;
- avtorizatsiya - jarayoni, bu jarayon kechuvida tranzaktsiya o'tkazilishi xususidagi talab to'lov tizimi tomonidan ma'qullanadi yoki rad etiladi. Bu muolaja xaridorning mablag'i borligini aniqlashga imkon beradi;

Xavfsizlik nuqtai nazaridan yuqorida keltirilganlarning har biri o'ziga xos masalalarni yechishga imkon beradi. Shu sababli autentifikatsiya jarayonlari va protokollari amalda faol ishlatiladi. Shu bilan bir qatorda ta'kidlash lozimki, nullik bilim bilan isbotlash xususiyatiga ega bo'lgan autentifikatsiyaga qiziqish amaliy xarakterga nisbatan ko'proq nazariy xarakterga ega. Balkim, yaqin kelajakda ulardan axborot almashinuvini himoyalashda faol foydalanishlari mumkin.

Autentifikatsiya protokollariga bo'ladigan asosiy xujumlar quyidagilar:

- maskarad (impersonation). Foydalanuvchi o'zini boshqa shaxs deb ko'rsatishga urinib, u shaxs tarafidan xarakatlarning imkoniyatlariga va imtiyozlariga ega bo'lishni mo'ljallaydi;
- autentifikatsiya almashinuvi tarafini almashtirib qo'yish (interleaving attack). Niyati buzuvchi odam ushbu xujum mobaynida ikki taraf orasidagi autentifikatsion almashinish jarayonida trafikni modifikatsiyalash niyatida qatnashadi. Almashtirib qo'yishning quyidagi xili mavjud: ikkita foydalanuvchi o'rtasidagi autentifikatsiya muvaffaqiyatli o'tib, ulanish o'rnatilganidan so'ng buzg'unchi foydalanuvchilardan birini chiqarib tashlab, uning nomidan ishni davom ettiradi;
- takroriy uzatish (replay attack). Foydalanuvchilarning biri tomonidan autentifikatsiya ma'lumotlari takroran uzatiladi;
- uzatishni qaytarish (reflection attack). Oldingi xujum variantlaridan biri bo'lib, xujum mobaynida niyati buzuvchi odam protokolning ushbu sessiya doirasida ushlab qolingani axborotni orqaga qaytaradi.
- majburiy kechikish (forced delay). Niyati buzuvchi odam qandaydir ma'lumotni ushlab qolib, biror vaqtdan so'ng uzatadi.
- matn tanlashli xujum (chosen text attack). Niyati buzuvchi odam autentifikatsiya trafikini ushlab qolib, uzoq muddatli kriptografik kalitlar xususidagi axborotni olishga urinadi.

Yuqorida keltirilgan xujumlarni bartaraf qilish uchun autentifikatsiya protokollarini qurishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- “so’rov–javob”, vaqt belgilari, tasodifiy sonlar, indentifikatorlar, raqamli imzolar kabi mexanizmlardan foydalanish;
- autentifikatsiya natijasini foydalanuvchilarning tizim doirasidagi keyingi xarakatlariga bog’lash. Bunday misol yondashishga tariqasida autentifikatsiya jarayonida foydalanuvchilarning keyinga o’zaro aloqalarida ishlatiluvchi maxfiy seans kalitlarini almashishni ko’rsatish mumkin;
- aloqaning o’rnatilgan seansi doirasida autentifikatsiya muolajasini vaqti-vaqti bilan bajarib turish va h.

Autentifikatsiya protokollarini taqqoslashda va tanlashda quyidagi xarakteristikalarini hisobga olish zarur:

- o’zaro autentifikatsiyaning mavjudligi. Ushbu xususiyat autentifikatsion almashinuv taraflari o’rtasida ikkiyoqlama autentifikatsiyaning zarurligini aks ettiradi;
- hisoblash samaradorligi. Protokolni bajarishda zarur bo’lgan amallar soni;
- kommunikatsion samaradorlik. Ushbu xususiyat autentifikatsiyani bajarish uchun zarur bo’lgan xabar soni va uzunligini aks ettiradi;
- uchinchi tarafning mavjudligi. Uchinchi tarafga misol tariqasida simmetrik kalitlarni taqsimlovchi ishonchli serverni yoki ochiq kalitlarni taqsimlash uchun sertifikatlar daraxtini amalga oshiruvchi serverni ko’rsatish mumkin;
- xavfsizlik kafolati asosi. Misol sifatida nullik bilim bilan isbotlash xususiyatiga ega bo’lgan protokollarni ko’rsatish mumkin;
- sirni saqlash. Jiddiy kalitli axborotni saqlash usuli ko’zda tutiladi.

1.2. Autentifikatsiya usullari va vositalari

Autentifikatsiya jarayoni quyidagi xizmatlar uchun qo’llaniladi:

- ▶ Elektron pochta;
- ▶ Web forum;

- ▶ Umumiy tarmoqda;
- ▶ Internet-bank tizimida;
- ▶ To'lov tizimlarida;
- ▶ Korparativ tarmoqlarda;
- ▶ Internet magazinda;

Tarmoqda qo'llaniladigan xizmatlar va qurilmalarning muhimligiga ko'ra autentifikatsiyaning turli usullaridan foydalaniladi(1.1-rasm).

Axborot tashuvchilar	ID-karta		
	USB-kalit		
	ID-manzil		
Axborot	Parol		
	PIN-kod		
	Ixtiyoriy so'z		
Biometrik	Barmoq izi		
	Yuz geometriyasi		
	Bioimzo		
	Ko'z to'rpardasi		
	Ovoz, qon tomir		

1.1 – rasm. Autentifikatsiya usullari

Autentifikatsiyani tanitishning asosan ikki xil yo'nalish mavjud:


- Onlayn tanish usullari
- Offlayn tanish usullari

Bu autentifikatsiyalash jarayonida foydalanuvchi ma'lumotlarining belgilarini o'zgarishi sistemaga kirishni murakkablashtiradi va “HA” yoki “YO'Q” javobi orqali tizimga kirishi mumkin. Biometrik belgilarning o'zgarishi ham “YO'Q” javobini berishga sabab bo'lishi mumkin.

Parollar asosida autentifikatsiyalash. Autentifikatsiyaning keng tarqalgan sxemalaridan biri oddiy autentifikatsiyalash bo'lib, u an'anaviy ko'p martali parollarni ishlatishiga asoslangan. Tarmoqdagi foydalanuvchini oddiy autentifikatsiyalash muolajasini quyidagicha tasavvur etish mumkin. Tarmoqdan foydalanishga uringan foydalanuvchi kompyuter klaviaturasida o'zining identifikatori va parolini teradi. Bu ma'lumotlar autentifikatsiya serveriga ishlanish

uchun tushadi. Autentifikatsiya serverida saqlanayotgan foydalanuvchi identifikatori bo'yicha ma'lumotlar bazasidan mos yozuv topiladi, undan parolni topib foydalanuvchi kiritgan parol bilan taqqoslanadi. Agar ular mos kelsa, autentifikatsiya muvaffaqiyatli o'tgan hisoblanadi va foydalanuvchi legal (qonuniy) maqomini va avtorizatsiya tizimi orqali uning maqomi uchun aniqlangan xuquqlarni va tarmoq resurslaridan foydalanishga ruxsatni oladi.

Paroldan foydalangan holda oddiy autentifikatsiyalash sxemasi 1.2–rasmda keltirilgan.



Rasm.1.2. Paroldan foydalangan holda oddiy autentifikatsiyalash

Ravshanki, foydalanuvchining parolini shifrlamasdan uzatish orqali autentifikatsiyalash varianti xavfsizlikning xatto minimal darajasini kafolatlamaydi. Parolni himoyalash uchun uni himoyalanmagan kanal orqali uzatishdan oldin shifrlash zarur. Buning uchun sxemaga shifrlash E_K va rasshifrovka qilish D_K vositalari kiritilgan. Bu vositalar bo'linuvchi maxfiy kalit K orqali boshqariladi. Foydalanuvchining haqiqiyligini tekshirish foydalanuvchi yuborgan parol P_A bilan autentifikatsiya serverida saqlanuvchi dastlabki qiymat ni taqqoslashga asoslangan. Agar P_A va qiymatlar mos kelsa, parol P_A haqiqiy, foydalanuvchi A esa qonuniy hisoblanadi.

Sertifikatlar asosida autentifikatsiyalash. Tarmoqdan foydalanuvchilar soni millionlab o'lchanganida foydalanuvchilar parollarining tayinlanishi va saqlanishi bilan bog'liq foydalanuvchilarni dastlabki ro'yxatga olish muolajasi juda katta va amalga oshirilishi qiyin bo'ladi. Bunday sharoitda raqamli

sertifikatlar asosidagi autentifikatsiyalash parollar qo'llanishiga ratsional alternativ hisoblanadi.

Raqamli sertifikatlar ishlatilganida kompyuter tarmog'i foydalanuvchilari xususidagi hech qanday axborotni saqlamaydi. Bunday axborotni foydalanuvchilarning o'zi so'rov-sertifikatlarida taqdim etadilar. Bunda maxfiy axborotni, xususan maxfiy kalitlarni saqlash vazifasi foydalanuvchilarning o'ziga yuklanadi.

Foydalanuvchi shaxsini tasdiqlovchi raqamli sertifikatlar foydalanuvchilar so'rovi bo'yicha maxsus vakolatli tashkilot-sertifikatsiya markazi CA (Certificate Authority) tomonidan, ma'lum shartlar bajarilganida beriladi. Ta'kidlash lozimki, sertifikat olish muolajasining o'zi ham foydalanuvchining haqiqiylikini tekshirish (ya'ni, autentifikatsiyalash) bosqichini o'z ichiga oladi. Bunda tekshiruvchi taraf sertifikatsiyalovchi tashkilot (sertifikatsiya markazi CA) bo'ladi.

Sertifikat olish uchun mijoz sertifikatsiya markaziga shaxsini tasdiqlovchi ma'lumotni va ochiq kalitni taqdim etishi lozim. Zaruriy ma'lumotlar ro'yxati olinadigan sertifikat turiga bog'liq. Sertifikatsiyalovchi tashkilot foydalanuvchining haqiqiylikni tasdig'ini tekshirganidan so'ng o'zining raqamli imzosini ochiq kalit va foydalanuvchi xususidagi ma'lumot bo'lgan faylga joylashtiradi hamda ushbu ochiq kalitning muayyan shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlagan holda foydalanuvchiga sertifikat beradi.

Sertifikat elektron shakl bo'lib, tarkibida qo'yidagi axborot bo'ladi:

- ushbu sertifikat egasining ochiq kaliti;
- sertifikat egasi xususidagi ma'lumot, masalan, ismi, elektron pochta manzili, ishlaydigan tashkilot nomi va h.;
- ushbu sertifikatni bergan tashkilot nomi;
- sertifikatsiyalovchi tashkilotning elektron imzosi – ushbu tashkilotning maxfiy kaliti yordamida shifrlangan sertifikatsiyadagi ma'lumotlar.

Qat'iy autentifikatsiyalash. Kriptografik protokollarida amalga oshiriluvchi qat'iy autentifikatsiyalash g'oyasi quyidagicha. Tekshiriluvchi (isbotlovchi) taraf qandaydir sirni bilishini namoyish etgan holda tekshiruvchiga

o'zining haqiqiy ekanligini isbotlaydi. Masalan, bu sir autentifikatsion almashish taraflari o'rtasida oldindan xavfsiz usul bilan taqsimlangan bo'lishi mumkin. Sirni bilishlik isboti kriptografik usul va vositalardan foydalanilgan holda so'rov va javob ketma-ketligi yordamida amalga oshiriladi.

Eng muhimi, isbotlovchi taraf faqat sirni bilishligini namoyish etadi, sirni o'zi esa autentifikatsion almashish mobaynida ochilmaydi. Bu tekshiruvchi tarafning turli so'rovlariga isbotlovchi tarafning javoblari yordami bilan ta'minlanadi. Bunda yakuniy so'rov faqat foydalanuvchi siriga va protokol boshlanishida ixtiyoriy tanlangan katta sondan iborat boshlang'ich so'rovga bog'liq bo'ladi.

Aksariyat hollarda qat'iy autentifikatsiyalashga binoan har bir foydalanuvchi o'zining maxfiy kalitiga egalik alomati bo'yicha autentifikatsiyalanadi. Boshqacha aytganda foydalanuvchi uning aloqa bo'yicha sherigining tegishli maxfiy kalitga egaligini va u bu kalitni axborot almashinuvi bo'yicha haqiqiy sherik ekanligini isbotlashga ishlata olishi mumkinligini aniqlash imkoniyatiga ega.

X.509 standarti tavsiyalariga binoan qat'iy autentifikatsiyalashning quyidagi muolajalari farqlanadi:

- bir tomonlama autentifikatsiya;
- ikki tomonlama autentifikatsiya;
- uch tomonlama autentifikatsiya.

Bir tomonlama autentifikatsiyalash bir tomonga yo'naltirilgan axborot almashinuvini ko'zda tutadi. Autentifikatsiyaning bu turi quyidagilarga imkon yaratadi:

- axborot almashinuvchining faqat bir tarafini haqiqiyligini tasdiqlash;
- uzatilayotgan axborot yaxlitligining buzilishini aniqlash;
- "uzatishning takrori" tipidagi xujumni aniqlash;
- uzatilayotgan autentifikatsion ma'lumotlardan faqat tekshiruvchi taraf foydalanishini kafolatlash.

Ikki tomonlama autentifikatsilashda bir tomonliligiga nisbatan isbotlovchi tarafga tekshiruvchi tarafning qo'shimcha javobi bo'ladi. Bu javob tekshiruvchi tomonni aloqaning aynan autentifikatsiya ma'lumotlari mo'ljallangan taraf bilan o'rnatilayotganiga ishontirish lozim.

Uch tomonlama autentifikatsiyalash tarkibida isbotlovchi tarafdan tekshiruvchi tarafga qo'shimcha ma'lumotlar uzatish mavjud. Bunday yonda-shish autentifikatsiya o'tkazishda vaqt belgilaridan foydalanishdan voz kechishga imkon beradi.

USB kalitlar va Smart kartalar. Hozirda parollar asosida autentifikatsiyalash keng tarqalgan ya'ni 60% foydalanuvchilar foydalanadi. Lekin uning xavfsizlikni ta'minlash imkoniyati unchalik ham ta'minlanmagan, shuning uchun hozirgi kunda USB kalitlar va smart kartalarasosida autentifikatsiyalash keng tarqalmoqda.

USB kalitlarni bir ko'rinishi sifatida E-Tokenni keltirsak bo'ladi. U apparatura va dasturlar orqali amalga oshirilib autentifikatsiyalovchi tizimda ya'ni, USB qurilmada elektron raqamli imzo saqlanadi. Uning ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin: eToken PRO - USB-kalit(1.3-rasm).



1.3-rasm. USB va Smart kartalar

Ular bir martalik va ko'p martalik kalit generatsiya qilinishi bilan farqlanadi. Masalan: Aladdin firmasi tomonidan tayyorlangan 32k va 64k versiyali USB qurilmalari bir martalik kalit asosida ishlaydi ya'ni har bir foydalanishda yangi kalit hosil qilib turadi.

Uni amalga oshirish uchun dastur yoki apparatura va eToken NG-OTP - gibrid USB-kalit kerak bo'ladi .

Hozirda Alladin firmasi tomonidan ishlab chiqilgan smart kartalar xuddi eTokenlar bajargan ishlarni xam amalga oshiradi.

Lekin muammoni bir tarafi hal bo'lgani bilan ikkinchi tarafi shundaki, smart kartalarni ishlatish uchun kompyuterda yana boshqa qurilma zarur lekin eToken uchun shart emas.

Bundan tashqari eTokenlar faqat kalitlarni emas ixtiyoriy maxfiy ma'lumotlar, sertifikatlar va boshqa ma'lumotlarni xavfsiz saqlashi mumkin.

Agar eTokenda tizimga kiruvchi PIN(Personal Identification Number) saqalgan bo'lsa, u %systemroot%\system32\etc\pass.ini faylidagi ma'lumotni o'zgartirib qo'yadi. Va tizimga kirishda faqat shu eToken ichidagi parol orqali kiriladi.

Foydalanuvchini autentifikatsiyalashda faol ishlatiladigan biometrik usullar quyidagilar:

- barmoq izlari;
- qo'l panjasining geometrik shakli;
- yuzning shakli va o'lchamlari;
- ovoz xususiyatlari;
- ko'z yoyi va to'r pardasining naqshi;
- elektron imzo orqali.

Biometrik autentifikatsiyalash usullari an'anaviy usullarganisbatanquyidagiazalliklargaega:

- biometrik alomatlarining noyoblighi tufayli autentifikatsiyalashning ishonchlilik darajasi yuqori;
- biometrik alomatlarining sog'lom shaxsdan ajratib bo'lmasligi;
- biometrik alomatlarini soxtalashtirishning qiyinligi.

Biometrik autentifikatsiyada foydalanuvchini tasdiqlovchi shaxsiy ma'lumotlar xavfsiz kanallar orqali uzatilishi lozim. Chunki kanalda uzatilayotgan ma'lumotlarni(login, parol) ushlab qolish xavflarini kamaytirish lozim. Buning

maxsus vositachi dasurlardan, kriptografik algoritmlardan va virtual kanallardan foydalanish lozim.

1.3. Foydalanuvchilarni biometrik autentifikatsiya turlari asosida haqiqiylikni tasdiqlash

Barmoqizlari yordamida biometrik autentifikatsiyalash. Biometrik tizimlar ning aksariyati identifikatsiyalash parametrisi sifatida barmoqizlaridan foydalanadi

(autentifikatsiyaning *daktiloskopik* tizimi). Bu tizimlar XX asrning 60-yillarida kirib kelgan bo'lib, jinoyat ishlari bilan shug'ullanuvchi organlar foydalangan.

Bunday tizimlar sodda va qulay, autentifikatsiyalashning yuqori ishonchliligiga ega. Bunday tizimlarning keng tarqalishiga asosiy sabab barmoq izlari bo'yicha katta ma'lumotlar bazasining mavjudligidir. Bunday tizimlardan dunyoda asosan politsiya, turli davlat va ba'zi bank tashkilotlari foydalanadi.

Autentifikatsiyaning daktiloskopik tizimi quyidagicha ishlaydi. Avval foydalanuvchi ro'yxatga olinadi. Odatda, skanerda barmoqning turli xolatlarida skanerlashning bir necha variant amalga oshiriladi. Tabiiyki, namunalar bir-biridan biroz farqlanadi va qandaydir umumlashtirilgan namuna, «pasport» shakllantirilishi talab etiladi. Natijalar autentifikatsiyaning ma'lumotlar bazasida xotirlanadi. Autentifikatsiyalashda skanerlangan barmoq izi ma'lumotlar bazasidagi «pasportlar» bilan taqqoslanadi.


Hozirgi kunda 3 xil barmoq izlarini olish texnologiyasi mavjud:

- optik nurlar orqali barmoq izini olish (FTIR ya'ni optik qurilmalar);
- yarim o'tkazgichlar orqali (termoskanerlar);
- ultratovushlar.

Bularning barchasi bir xil prinsipda ishlaydi ya'ni bir xil matematik algoritmlar va olingan natijalarni bir biri bilan solishtirish.

Barmoq izlarining skanerlari. Barmoq izlarini skanerlovchi an'anaviy qurilmalarda asosiy element sifatida barmoqning xarakterli rasmini yozuvchi kichkina optik kamera ishlatiladi (1.4-rasm). Ammo, daktiloskopik qurilmalarni

ishlab chiqaruvchilarning ko'pchiligi integral sxema asosidagi sensorli qurilmalarga e'tibor bermoqdalar. Bunday tendentsiya barmoq izlariga asoslangan autentifikatsiyalashni qo'llashning yangi sohalarini ochadi.



1.4 – rasm. Barmoq izini tasvirlash

Bunday texnologiyalarni ishlab chiquvchi kompaniyalar barmoq izlarini olishda turli, xususan elektrik, elektromagnit va boshqa usullarni amalga oshiruvchi vositalardan foydalanadilar.

Skanerlardan biri barmoq izi tasvirini shakllantirish maqsadida teri qismlarining sig'im qarshiligini o'lchaydi. Masalan, Veridicom kompaniyasining daktiloskopik qurilmasi yarimo'tkazgichli datchik yordamida sig'im qarshiligini aniqlash orqali axborotni yig'adi. Sensor ishlashining prinsipi quyidagicha:

Ushbu asbobga qo'yilgan barmoq kondensator plastinalarining biri vazifasini o'taydi. Sensor sirtida joylashgan ikkinchi plastina kondensatorning 90000 sezgir plastinkali *kremniy* mikrosxemasidan iborat. Sezgir sig'im datchiklari barmoq sirti do'ngliklari va pastliklari orasidagi elektrik maydon kuchining o'zgarishini o'lchaydi. Natijada do'ngliklar va pastliklargacha bo'lgan masofa aniqlanib, barmoq izi tasviri olinadi. Integral sxema asosidagi sensorli tekshirishda **AuthenTeck** kompaniyasida ishlatiluvchi usul aniqlikni yana ham oshirishga imkon beradi.

Bu usul bo'yicha asosiy skaner sifatida Identix kompaniyasining *TouchSafe II skanerlarini* keltirish mumkin. Bu skaner kontrolleri kompyuterga ISA shinasini orqali ulanadi.

Qator ishlab chiqaruvchilar biometrik tizimlarni smart-kartalar va karta-kalitlar bilan kombinatsiyalaydilar.

Integral sxemalar asosidagi barmoq izlari datchiklarining kichik o'lchamlari va yuqori bo'lmagan narxi ularni himoya tizimi uchun ideal interfeysga aylantiradi. Ularni kalitlar uchun brelokklarga o'rnatish mumkin. Natijada foydalanuvchi kompyuterdan boshlab to kirish yo'li, avtomobillar va bankomatlar eshiklaridan himoyali foydalanishni ta'minlaydigan universal kalitga ega bo'ladi.

Yuzning tuzilishi bo'yicha autentifikatsiyalovchi tizimlar. Bu tizimlar arzonligi tufayli eng foydalanuvchan hisoblanadilar, chunki aksariyat zamonaviy kompyuterlar video va audio vositalariga ega. Bu biometrik tizimlari telekommunikatsiya tarmoqlarida masofadagi foydalanuvchi subyektni identifikatsiyalash uchun ishlatiladi. Yuz tuzilishini skanerlash texnologiyasi boshqa biometrik texnologiyalar yaroqsiz bo'lgan ilovalar uchun to'g'ri keladi.

Bu holda shaxsni identifikatsiyalash va verifikatsiyalash uchun *ko'z, burun va lab* xususiyatlari ishlatiladi. Yuz tuzilishini aniqlovchi qurilmalarni ishlab chiqaruvchilar foydalanuvchini identifikatsiyalashda xususiy matematik algoritmlardan foydalanadilar.

Ta'kidlash lozimki, yuz tuzilishini aniqlash texnologiyasi yanada takomillashtirishni talab etadi. Yuz tuzilishini aniqlovchi aksariyat algoritmlar quyosh yorug'ligi jadalligining kun bo'yicha tebranishi natijasidagi yorug'lik o'zgarishiga ta'sirchan bo'ladilar. Yuz holatining o'zgarishi ham aniqlash natijasiga ta'sir etadi. Yuz holatining 90° ga o'zgarishi aniqlashni samarasiz bo'lishiga olib keladi.

Ovoz bo'yicha autentifikatsiyalash tizimlari. Bu tizimlar arzonligi tufayli foydalanuvchan hisoblanadi. Xususan ularni ko'pgina shaxsiy kompyuterlar

standart komplektidagi uskuna (masalan mikrofonlar) bilan birga o'rnatish mumkin.

Ovoz bo'yicha autentifikatsiyalash tizimlari har bir odamga noyob bo'lgan *balandligi, modulyatsiyasi va tovush chastotasi* kabi ovoz xususiyatlariga asoslanadi. Ovozni aniqlash nutqni aniqlashdan farqlanadi. Chunki nutqni aniqlovchi texnologiya abonent so'zini izoxlasa, ovozni aniqlash texnologiyasi so'zlovchining shaxsini tasdiqlaydi. So'zlovchi shaxsini tasdiqlash ba'zi chegaralanishlarga ega. Turli odamlar o'xshash ovozlar bilan gapirishi mumkin, har qanday odamning ovozi vaqt mobaynida kayfiyati, hissiyotlik holati va yoshiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Uning ustiga telefon apparatlarning turli-tumanligi va telefon orqali bog'lanishlarining sifati so'zlovchi shaxsini aniqlashni qiyinlashtiradi. Shu sababli ovoz bo'yicha aniqlashni yuz tuzilishini yoki barmoq izlarini aniqlash kabi boshqa biometrik tizimlar bilan birgalikda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ko'z yoyi to'r pardasining shakli bo'yicha autentifikatsiyalash tizimi.

Bu tizimlarni ikkita sinfga ajratish mumkin:

- ko'z yoyi rasmidan foydalanish;
- ko'z to'r pardasi qon tomirlari rasmidan foydalanish.

Odam ko'z pardasi autentifikatsiya uchun noyob ob'ekt hisoblanadi. Ko'z to'r pardasi qon tomirlarining rasmi hatto egizaklarda ham farqlanadi.

Identifikatsiyalashning bu vositalaridan xavfsizlikning yuqori darajasi talab etilganida (masalan harbiy va mudofaa ob'ektlarining rejimli zonalarida) foydalaniladi.

Foydalanuvchini biometrik autentifikatsiyalash maxfiy kalitdan foydalanishni modul ko'rinishida shifrlashda jiddiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu modul axborotdan faqat xaqiqiy xususiy kalit egasining foydalanishiga imkon beradi. So'ngra kalit egasi o'zining maxfiy kaliti ishlatib xususiy tarmoqlar yoki Internet orqali uzatilayotgan axborotni shifrlashi mumkin.

Elektron imzo bo'yicha autentifikatsiyalash tizimi. Imzoni tasdiqlash texnologiyasi insonni haqiqiylikni aniqlashda imzoning dinamik taxlillaridan

foydalanadi. Bu usul inson imzo qo'yayotgandagi bosim, tezlik va burchakka asoslanib ishlaydi. Bu texnologiya insonni aniqlash uchun asosan qo'l imzosidan foydalanadi. Elektronik yozuv stolidan imzo tezligi, yo'nalishi va koordinatalarini aniqlashda foydalaniladi. Imzo dinamikasi bilan bog'liq hech qanday maxfiylik yoki kodlashlar taklif qilingani yo'q. Ammo zamonaviy namunalar undan imzolanayotgan hujjatlar qo'shilayotganda foydalanadilar. Masalan Topaz sistemasida imzolangandan keyin hujjat qalbakilashtirishda imzo ko'zdan g'oyib bo'ladi. Qo'lyozma imzoni tanib olish kompyuterning qog'oz hujjatlar, suratlar, sezuvchan monitorlar va boshqa qurilmalar kabi manbalardan qo'lda yozilgan imzoni qabul qilib uni qayta ishlash qobiliyatidir.

Yozilgan imzo nusxasi avtomatik rejimda qog'ozdan optik skanerlash orqali yoki intellektual ajratib olish orqali qabul qilinishi mumkin. Sezuvchan ruchkaning harakati chiziq sifatida qabul qilinishi mumkin, masalan kompyuter ekrani sirtiga asoslangan ruchkani olishimiz mumkin (1.5-rasm).




1.5 – rasm. Bioimzo

Onlayn tanish usullari: Bu usul inson imzo qo'yayotgandagi bosim, tezlik va burchakka asoslanib ishlaydi. Elektronik yozuv stolidan imzo tezligi, yo'nalishi va koordinatalarini aniqlashda foydalaniladi.

Offlayn tanish usullar: Qo'lda yozilgan imzoni offlayn aniqlash o'z ichiga rasmdagi yozuvlarni ajratib olishni oladi. Bunda rasm qog'ozdan skaner orqali olinadi. So'ngra tasvir qayta ishlanadi.

Bu dasturlar asosan sezuvchan monitorli kompyuterlar uchun mo'ljallanagn, ammo hozirda bu turdagi kompyuterlar yetishmovchiligi tufayli oddiy kompyuterlarda ham ishlatilishi ko'zda tutilgan. Bu texnologiyalarni avfzal tomonlaridan yana biri yuqoridagi autentifikatsiya vosita(parol, USB-kalit yoki ID-karta)lari kabi ko'tarib yurish shart emas.

Hozirgi kunda foydalanilayotgan autentifikatsiya tizimlarini amalda qo'llanilish darajasini keltirish mumkin(1.6-rasm).



1.6-rasm. Autentifikatsiya tizimlarini amalda qo'llanilish darajasi

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarda xam ko'rinib turibdiki, barmoq izi bo'yicha autentifikatsiyalsh tizimi eng keng tarqalgan.Qo'l geometriyasi vaqt o'tishi bilan tez-tez o'zgargani uchun ushbu tizimdan kamroq foydalaniladi.

Klaviatura orqali imzo chekish eng samarasiz usullardan biri hisoblanadi.U faqatgina vaziyat emas foydalanuvchining xarakteriga xam bog'liq.

Yuz tuzilishi bo'yicha esa, xozirgi kunda eng keng tarqalayotgan va rivojlanib borayotgan usullardan biridir. Uning afzalligi oddiy veb kamera orqali amalga oshirilishidir.Agar ikki yoki undan ko'p biotizimlarni birlashtirib amalga oshirilsa yanada ishonchliligi oshadi.

II BOB.YUZ SHAKLI BO'YICHA FOYDALANUVCHILARNI AUTENTIFIKATSILASH DASTURINI ISHLAB CHIQISH

2.1. Yuz shakli bo'yicha autentifikatsiyalash usullari

Yuz shakli bo'yicha autentifikatsiyalash usullari turli ko'rinishda bo'lib quyida ulardan asosiylarini keltirib o'tamiz:


- Neyron tarmoqli usul(bir va ko'p qatlamli);
- Elastik grafiklarni taqqoslash usuli;
- Chiziqli diskreminant taxlil usuli;
- Yuzning geometrik xarakteristikalarini asosidagi usul;
- Empirik aniqlash usuli;
- Viola-Jones usuli.

Neyron tarmoqli usul. Neyron tarmoqli usul tasvirni aniqlashda foydalanilib, bir necha neyron tarmoqlarini qo'llashga asoslanadi. Rasm va tasvirlarni aniqlash uchun neyron tarmoqlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- Berilgan tasvir belgilarini yoki kalitli ko'rsatkichlarini ajratish uchun qo'llash;
- Ko'rsatkichlaridan ajratilgan yoki o'zining nusxalarini klassifikatsiyalash(birinchi navbatda ajratilgan kalit so'zlarning maxfiy ichki tarmoqqa kiritilishi);
- Masalani eng qulayini tanlash.

Neyron tarmoqlar bir-biri bilan birgalikda ishlashi va natijani umumiy "Xulosa" ko'rinishida berishi mumkin. Masalan: tasvirni bir qismini bir algoritim va boshqa qismini yana bir algoritim bajaradi, natija umumlashtirilib yagona xulosaga erishiladi. Bir necha neyron tarmoqlarning birgalikda aloqasida kod og'irligi asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun ulardan qo'llash uchun eng qulayi xamma vazifalarni parallel bajara oladigan tarmoq hisoblanadi. Bu neyron tarmoqlarning boshqa usullardan afzalligi uning egiluvchanligi va universalligidir. Bundan tashqari kalit belgilari bilan o'zaro aloqada ekanligi.

Ko'p qatlamli neyron tarmoqlari. Ko'p qatlamli neyron tarmoqlar qatlamlar bir-biri bilan ketma-ket bog'lanadi. Ya'ni, birinchi qatlam chiqishida keyingi qatlam va shu kabi davom etadi. Birin ketin qatlamlarni amalga oshirishda paydo bo'lgan xatolarni umumiy yig'indisi ko'rinishda olsak, birini xatosini ikkinchisi to'ldirib ketadi va umumiy xatolar soni nisbatan kamayadi(2.1-rasm).



2.1-rasm. Ko'pqatlamli neyron tarmoq


Quyida solishtirish kerak bo'lgan rasmni ombordagi rasmlar bilan solishtirishni ko'rib chiqamiz. Bunda rasmning bir ko'rinishiga qarab boshqa holatdagi ko'rinishini keltirib chiqaramiz. Xamma tarmoqlarni qo'llab natijaviy yig'indi asosida so'ralayotgan rasmni olishimiz mumkin.

Tasvirlar bilan ishlashda asosiy kamchilik sifatida yorug'likning va oldingi vaziyatga nisbatan ayrim qismlarning(kalit xarakteristikalar) o'zgarishini keltirishimiz mumkin. Bir qatlamliga nisbatan ko'p qatlamli neyron tarmoqlar yuqoridagi kamchiliklarni xam bartaraf etgan. Yuzning asosiy belgilari – burun, lab, va ko'z orasidagi masofa qanday xolatda bo'lishidan qat'iy nazar saqlanadi. Ulardan biri o'zgarganda xam natija o'zgarmasligi mumkin.

Solishtirilishi kerak bo'lgan rasm ombordagi rasm bilan ma'lum burchakka yoki o'lchami o'zgargan bo'lishi mumkin. Bu kamchilikni ketma-ket qatlamlardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Rasmdagi ajratilgan belgilarni xammasini bir xil

o'lchamga kichiklashtirib qatlamlar bo'yicha solishtirib chiqadi. Bu usul 98%gacha kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin.

Ko'pqatlamli neyron tarmoqlari yuqorida belgilangan sinf asosida belgilarni aniqlashi va qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, xar bir berilgan nusxa o'zining sinfiga tegishli belgilarni aniqlaydigan natijada xamma sinflardan olingan natijalar birlashtiriladi. Kiruvchi tasvirni aniq belgilab olish uchun neyron tarmoqli detektor ishlatilmoqda. U 20x20 (2.2-rasm) piksel o'lchamli kiruvchi rasmni beradi va solishtirilishi kerak bo'lgan rasm xam xuddi shu o'lchamda bo'lib, mos sinfdagi belgilari taqqoslanadi.



2.2-rasm. Asosiy ko'rsatkich asosida taqqoslash.

Yuqori tartibli neyron tarmoqlari. Bunda bir qatlam va bir necha chiqish bo'lib, xar bir chiquvchi ko'rsatkich tartibli vektorlar ko'rinishida bo'ladi. Bunday tarmoqlarda oddiy bo'linuvchilar murakkab formallashtirilgan bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan rasmning katta yoki kichik burchaklarga o'zgarib kiritilishi xam solishtirishga ta'sir etadi, lekin yuqori tartibli neyron tarmoqlari bu masalani xal qilgan. Bu tarmoqning asosiy avzalligi juda tez natijani qayd etadi.

Xolfildning neyron tarmog'i. Xolfildning neyron tarmog'i bir qatlamli bo'lib to'liq aloqadorlik ya'ni, kiruvchi rasm bilan chiquvchi rasmning to'liq aloqasini ta'minlab beradi. Yuqori tartibli neyron tarmoqlarga nisbatan afzaldir. Chunki xamma ko'rsatkichlar chiquvchi natija bilan bog'liq. Shuningdek, Xolfild tarmoqlar masalalarni qulay xal qilishda qo'llaniladi. Bu tarmoqlar

assinxron vasinxron ko'rinishda amalga oshiriladi. Sinxron ko'rinishda bir vaqtda xamma neyronlarni hisoblaydi, asinxron esa, tanlangan neyronlarni hisoblaydi

Koxonenning neyron tarmog'i. Koxenning o'zi birlashtiruvchi neyron tarmog'i kiruvchi nusxalarni topologik tartibini ta'minlaydi. Ular kirishda n va chiqishda m uzliksiz ketma-ketlikni ta'minlab orasidagi topologik bog'lanish $m \ll n$ ko'rinishda bo'ladi. Bunda xar bir ketma-ketlik sinflarga ajratilib, yuqori aniqlikka ega bo'lgan rasmlarni chegarasini belgilaydi. Chiquvchi rasm bilan bog'liq holda n o'lchamli tasvir olinadi. Xar bir neyron keyingisi bilan bog'langan. Koxonenning bu teoremasida vektor kvantizatsiyasidan unumli foydalanilgan vaxar bir qatlam panjarasi qo'shni neyron bilan aloqasi bor.

Ikki o'lchamli tasvirlarda 5×5 o'lchamli bo'lib 25 ta panjara bo'lsa, uch o'lchamli tasvirlarda $5 \times 5 \times 5$ o'lchamli bo'lib 125 ta panjara bilan ifodalanishi qabul qilingan. Bu ifodalanish yorug'likning va holatning o'zgarishida bardoshlilikni ta'minlaydi. Agar asosiy ko'rsatkich usulidan foydalanib birgalikda amalga oshirilsa, rasm o'lchami kichiklashtirib foydalanishda afzalliklari oshadi.


Koxonen tarmog'i kengaytirish uchun **asosiy-radial funksiyasidan** foydalaniladi. Unda tasvirdagi solishtiriluvchi qatlamdan keyin yana bir qatlam qo'shiladi bu qayta qurish imkoniyatini oshiradi. Bu qatlam Gauss funksiyasining asosiy elementi bo'lib xisoblanadi. Asosiy-radial funksiya bir-biriga yaqin va qo'shni qatlamlarning klasterining markazlari orasini ifodalaydi. Asosiy komponent usulini birgalikda qo'llash hisoblash vaqtini kamaytiradi (m : soqqolli kishini boshqalaridan ajratish).

Elastik grafiklarni taqqoslash usuli. Bu usul (*Elastic Bunch Graph Matching*)da –yuzning kalit nuqtalari: bosh, burun, lab va ko'z chegarasi va oxirgi nuqtalari grafik ko'rinishda ifodalanadi (2.3-rasm). Bunday xar bir nuqta Gaborov funksiyasiga ko'ra 5ta xar xil chastota va 8 ta aniqlik ko'effitsientini hisoblaydi. Bunday ko'effitsientni “J”-jet deb nomlaymiz.

Jet tasvirdagi nuqtalarni ikki maqsad asosida aniqlaydi:

- Aniq tasvirdan nuqtalarni aniqlash;
- Xamma tasvirlardan qidirilayotgan tasvir nuqtalarini aniqlash.

Bu usul tasvir holati 22° gacha o'zgarganda o'rinli bo'ladi. Agar undan ortsa uni aniqlash darajasi sekin kamaya boradi. Bu kabi holatlar bo'lganda ElGraph ishlatilmaydi.




2.3-rasm. Yuzning kalit nuqtalari

Ushbu usulning keyingi rivoji sifatida *ElWeight* stahlili asosida muhimlik koefitsientlarini ajratishni kiritish mumkin.

Ushbu usulning oldingi har xil ko'rinishlarida *ElGrid*, *Gruding* grafiklarining strukturalari yuqorida aniqlangan kalit nuqtalardan foydalanil maydi. Oldin rasmdagi panjaralar bir biri bilan taqqoslangan. Ya'ni yuzdagi kalit nuqtalar aniqlanib, u asosida o'xshash yuzlar yig'iladi natijada hosil bo'lgan yuzlarda panjaralar o'tkazilib, ular asosida taqqoslanadi. Boshqa bir usulda esa,

boshida panjarani nusxasi olinadi, keyin aniqlash jarayonida yaroqlilari ajratiladi (2.4-rasm).



2.4-rasm. Elastik panjaralarni ifodalash

Chiziqli diskreminant tahlil usuli. Xususiy yuz usuli kabi holatlarni ideallashtirish uchun qo'llanilib, shuningdek, yorug'likning yagona parametrda bo'lishi, ko'zoynak taqib kirishda xalaqitlar va soqqolning paydo bo'lishi. Bu holatlar umumiy tasodiflarda hech qachon dastlabki qayta ishlash uchun yo'l topa olmaydi. Bu kamchiliklarni albatta bartaraf etish lozim. Shuning uchun asosiy komponent usuli bilan birgalikda ishlash tavsiya etiladi.

Chiziqli diskreminant tahlil usuli (Linear Discriminant Analysis, **LDA**) – belgilar qurishda rasmni tanlash quyidagicha: ichki sinflarni kichiklashtirish va tashqi sinflarni kengaytirish uchun belgilar qurishda oraliq keltirilgan. Unda chiziqli bo'limlar sinfi kerak bo'ladi.

$$W_{opt} = \arg \max_W \frac{|W^T S_B W|}{|W^T S_W W|}$$

S_B – sinflararo dispersiya matritsasi

S_W – ichki sinflararo dispersiya matritsasi

Balki, c-sinflarni umumiy sonini tashkil etganda c-1 ta qurilgan vektorlar belgilarni qurishga asos bo'ladi. Bu vektorlar yordamida rasmlarni qurish belgilarni qurishga o'zgaradi. Asosiy component usulidan foydalangan xolda rasm o'lchamini kamaytirish mumkin.

$$W_{fd} = \arg \max_W \frac{|W^T W_{pca}^T S_B W_{pca} W|}{|W^T W_{pca}^T S_W W_{pca} W|}$$

W_{pca} —kichik o'lchamda qurishni proeksiyalash matritsasi

Bu usulhozirgi kunda Fisher yuzi(*Fisherfaces*) deb nomlanadi.

Fisher qo'llanilishida yoritilganlik asosini o'zida saqlaydi va chiziqli kombinatsiya yordamida ixtiyoriy kombinatsiyani olish mumkin. Yuzni har xil o'zgarishi, yoritilganlik va ko'zoynak taqilgan xolatda xam keng diapazonda yuqori aniqlikda(96% gacha) farqlaydi.Xususiy yuzni analogik usulda aniqlash kam natija beradi.Shuning uchun Asosiy komponent usuli xatto Fisher usulidan xam yaxshiroq hisoblanadi.

Umuman olganda xamma usullarda bor xatoliklar quyidagilar: yorug'likning ta'siri, ko'zoynak taqishi, holatning biror burchakka o'zgarishi vasoqqol paydo bo'lishi kabi holatlar bunga xam tegishli xisoblanadi. Bu usulning afzalligi sifatida chiziqli sinflarga bo'lishni keltirish mumkin.

Yuzning geometrik xarakteristikalarini asosidagi usul.Bu usul xammasidan birinchi bo'lib qo'llanilgan. Bu usul birinchi kriminal sohada qo'llanilgan va u yerda qayta ishlangan. Keyin uning kompyuter dasturlari ishlab chiqilgan. Birinchi yuzning kalit nuqtalari topilgan va belgilar to'plami tuzilgan. Xar bir belgi kalit nuqtalar orasidagi masofani ifodalagan(2.5-rasm).Elastik graflar bilan taqqoslaganda yaxshiroq hisoblanadi.


Kalit nuqtalar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Ko'zning burchagi;
- Lab;
- Burun uchi;
- Ko'zning markazi.

Kalit maydonlari to'g'ri burchakli maydon ko'rinishida xam olish mumkin.

Identifikatsiyalash jarayoni ombordagi rasm belgilari bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.Kalit nuqtalarini aniq joylashgan o'rnini belgilash juda qiyin lekin, uning ushbu nuqtalarini aniq belgilash yuzni aniqlashda muvaffaqiyatga olib keladi.

Shuning uchun yuz tuzilishini aniqlash ta'sirlarsiz va kalit nuqtalarni aniqlash jarayoniga xalaqitlarsiz bo'lishi lozim. Shuningdek, xalaqitlar: ko'zoynak taqish, soqqol, bezak berish, sochni xolati va boshqa hollar. Yorug'likni o'zgarishini esa, xammasida e'tiborga olish lozim.



2.5-rasm. Oraliq va nuqtalarni identifikatsiyalash.a) kriminal fototaxlilda qo'llaniladi;b) avtomatlashgan identifikatsiya tizimlarini qurishda ishlatiladi.

Shuningdek, rasm ma'lum burchakka burilishi va kichik og'ishini hisobga olish lozim.Yuzni ifodalash neytral bo'lishi lozim.Boshqa ko'pgina usullarni ushbu holatlarni yechimi berilmagan.

Bu usul suratga olish jarayonida xam juda muhim.Ixtoyoriy vaziyatda kalit nuqtalarni aniqlash juda zarurdir.

Bu usul shu kabi ko'pgina usullarni qurishda juda qulay.Bundan tashqari xujjatdagi rasm bilan hozirgi suratga olish jarayonida solishtirish xujjatlar nazoratini olib borishda xam muhimdir.Boshqa rasmdan ushbu shaxsni tezda ajratib olish mumkin. Masalan: biometrik passport tizimi.

Empirik aniqlash usuli.Rasmlarda yuzni aniqlashda inson miyasi bilan solishtirish juda muvaffaqiyatli yo'l hisoblanadi.Shuningdek bu usul oldin qo'llanilgan va ayrim masalalarni hal qilgan. Bu usulni ikki turga bo'lish mumkin:

- Bilim asosida “yurqoridan-pastga”;
- Xususiyatiga ko'ra “pastdan-yuqoriga”.

“Yuqoridan-pastga” aniqlash usuli inson yuzidagi belgilarni rasmning qismlari deb qarash qonuniyatlar to’plamini aniqlaydi. Rasmdagi yuzni kuzatish davomida inson ha yoki yo’q javobini berish bilan hal qiladi. Bu empirik bilimlarni formallashtiradi. Yuzni holatlari to’plamini qurish oddiy, masalan: yuz odatda simmetrik, yuz qismlari (burun, ko’z, lab, qosh), yorug’likning o’zgarishi bu holatlar yuzni aniqlash uchun asosiy parametrlar bo’lib hisoblanadi. Rasm qismlaridagi bu holatlarni uzatish orqali algoritm ishlab chiqish va bu asosida amalga oshirish xam mumkin. Bu kabi usullar qatoriga yuz shablonlari bilan xam birga ishlashi mumkin. Shablon rasmdagi yuzni past darajadagi standart holati. Masalan: rasmdagi alohida maydonlar holati va ularni bog’liq holda taqsimlanishi. Shablon yordamida yuzni aniqlash belgilangan shablonga bog’liq holda har bir rasm maydonlarini belgilashga qaratilgan.

